

IX-XI ASRLARDA XORAZM

Abdrimov Zarifboy Erkinovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedra o'qituvchisi
abdrimovzarifboy123@gmail.com <https://orcid.org/0009-0005-6599-5517>

Annatsiya: Ushbu maqola Xorazm vohasining butun jahon ilm – fan taraqqiyotida muhim rol o'ynagan Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida iqtisodiy soha ham jadallik bilan taraqqiy qilganligini yozma manbalar ma'lumotlari to'la tasdiqlaganligi shuningdek, jahon miqyosida ilm – fan taraqqiyotiga, Buyuk Ipak yo'lidagi jahon savdosi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ma'muniylarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Ma'muniylar sulolasi, akademiya, taraqqiyot, Xorazmshoh, savdo-sotiq, savdo yo'li.

ХОРЕЗМ В IX-XI ВЕКАХ

Аннотация: Данная статья посвящена Хорезмскому оазису, который сыграл важную роль в развитии мировой науки и знаний во времена династии Хорезмшахов - Маъмунидов, что полностью подтверждается данными письменных источников об интенсивном развитии экономической сферы в Хорезмском оазисе, а также Маъмунидам, которые внесли огромный вклад в развитие науки и знаний в мировом масштабе и в развитие мировой торговли на Великом шелковом пути.

Ключевые слова: династия Маъмунидов, академия, прогресс, Хорезмшах, торговля, торговый путь.

KHOREZM IN THE 9TH-11TH CENTURIES

Annotation: This article is dedicated to the Ma'munids, who played an important role in the development of world science in the Khorezm oasis during the Khorezmshah-Ma'munid dynasty, which fully confirmed the rapid development of the economic sphere in the Khorezm oasis according to written sources, as well as who made a huge contribution to the development of science on a global scale and the development of world trade along the Great Silk Road.

Keywords: Ma'munid dynasty, academy, development, Khwarazmshah, trade, trade route.

KIRISH

Xorazmning arablar bosqini natijasida Xorazmning shu davrgacha shakllangan madaniyati, dini shu bilan birga tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar ham yo'qotilgan. Xorazm zamini Arab Xalifaligi tasarrufiga kirishi uning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy jihatdan taraqqiyotdan to'xtata olmadi.

Balki IX-XI asrlarda Xorazm zaminidagi shaharlar butun islom olamidagi yirik shaharlar qatoridan joy olib ulgurdi. Bunga albatta birinchi o'rinda Xorazmning Sharqiy Yevropa, Volga bo'yi, Janubiy Sibir xalqlarini Janubiy g'arbiy Osiyo xalqlari bilan bog'lovchi savdo chorraxasida joylashganligi, hamda Xorazmlik savdogarlarni xalqaro savdoda asosiy vositachilik qilganliklari hamdir. Bu omil Xorazmni nafaqat iqtisodiy tomondan baquvvat davlatga aylantirdi balki jahon ilm – fani rivojiga xissa qo'shgan allomalarni ham dunyoga keltirdi. Afsuski bu davr tarixini to'laqonli yoritib beruvchi tizimli asar mavjud emas, faqat davr tarixi aks etgan barcha manbalar qiyosiy taxlil qilinib yagona xulosaga kelish mumkin. Ma'muniy hukmdor Ali ibn Ma'mun davrida uning sayl xarakati natijasida "Donishmandlar uyi" tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu ilmiy faoliyat olib boruvchi markaz "Ma'mun akademiyasi" nomi bilan mashhur. Xorazmda ilm-fan ahliga Abu-l Abbos Ma'mun davrida ham yaxshi e'tiborda bo'lingan. Buni hukmdor Abu-l Abbos Ma'munning o'zining yaqinlariga aytgan quyidagi so'zlaridan ham bilish mumkinki, ko'pincha u shunday der edi: "Mening o'y-hayolim-kitob va uni o'qish va unga bo'lgan sevgi-muhabbat, oliyjanob odamlarga g'amxo'rlik qilish"[1].

Ma'muniylar sulolasi faqat 22 yil hukmronlik qilgan bo'lsada, jahon ilm-fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'sha oldilar. Ular tashkil qilgan hamda ular homiyligida faoliyat yuritgan "Dorul hikma va maorif", ya'ni Xorazm Ma'mun Akademiyasi shubhasiz jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Ammo, shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, bu tadqiqotda Xorazmshoh – Ma'muniylar davri madaniy jarayonlarda faqat mazkur akademiya haqida so'z yuritilmaydi. Bu o'rinda Ma'muniylar davri madaniy jarayonlarda, Xorazm vohasining shu davrda qo'shni hududlar bilan madaniy aloqalari va bir-biriga o'zaro ta'sir kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'muniylar davrida Xorazmning poytaxti Gurganj shahri bo'ldi. Bu holat XVI asrda Arabshohiylar davrida poytaxt Xivaga ko'chirilguncha saqlanib qoldi. Poytaxtning Xivaga ko'chirilishi albatta bu shaharning a'lohida ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha X asr oxiriga kelib, Xorazmda Gurganchdan tashqari, Mizdahqon, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardaxushmisan, Kardaranxos, Darxos, Xiva, Puljoy (Git), Bug'roxon

(Madminiya) kabi yirik shaharlar shakllanib, ularning deyarli barchasida yirik bozorlar bo'lgan. Arxeologiya va yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm hududida shaharlar deb qabul qilingan jami 64 dan kam bo'lmagan arxeologik yodgorliklar qayd qilingan. Ammo ulardan faqat 32 tasi (bu yerda Ma'muniylar davri shaharlari nazarda tutilgan) haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot bor, shuningdek, bu shaharlarning 20 tasida unchalik katta bo'lmagan hajmdagi statsionar ishlar olib borilgan. Bular asosan, mamlakat chekkasidagi yodgorliklardir. Afsuski, markaziy Amudaryo bo'yi rayonlaridagi muhim shaharlar kam o'rganilgan; o'rta asr geograflari sanab o'tgan 24 shahardan faqat 20 tasi bu mualliflarning yozib qoldirgan qisqacha ma'lumotlari tufayligina ma'lumdir. Mazkur hududning qadimiy shaharlari keyingi ko'p asrlik qatlamlar ostida yashirinib qolgan.

Xorazm shaharlarining ko'pchiligi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lib, bu yo'llar Janubdan, Xurosondan, Jurjon va Movarounnahrdan mamlakatning Amudaryo o'ng va so'l qirg'oqlaridagi markaziy mintaqalari orqali o'tgan. SHaharlarning bir qismi mamlakat chekkasida, mintaqaning ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi va dashtlardagi ko'chmanchilar o'zaro munosabatlarga kiradigan hududda vujudga kelgan. Xorazm urbanizatsiyasining uch hududini ajratib ko'rsatish mumkin:

Markaziy Amudaryobo'yi rayonlari, bu yerdagi arxeologik tadqiqotlar bir joyda ko'p asrlar mobaynida mavjud bo'lgan aholi punktlarining ko'proq darajada o'troqlashganini ko'rsatadi;

Amudaryoning quyi oqimi – bu yerda shahar tipidagi manzilgohlar oldinroq, VII-IX asrlardan so'ng paydo bo'lib, aynan Ma'muniylar davrida gullab-yashnagan; Iqtisodiy jarayonlarni qay darajada bo'lganligini tarixchi al-Maqdisiy asarlaridagi ma'lumotlar orqali ham bilishimiz mumkin. Maqdisiy Bulg'ordan Xorazm orqali o'tadigan molar bilan bir qatorda Xorazm zaminida tayyorlangan haridorgir mahsulotlarni ham sanab o'tadi, "...Xorazmda uzum, mayiz ko'p, bodom mag'izi, kunjut, yo'l-yo'l kiyim-boshlar, gilamlar, ko'rpalar, ajoyib kimxob, "mulxam" degan choyshab, qulf, rangli kiyimlar, eng kuchli odamlargina ega oladigan kamonlar, alohida bir xil pishloq, zardob, baliq tayyorlanadi. U yerda kemalar yasaladi, yasalganda ham nihoyasiga yetkaziladi". Ushbu ro'yxatga e'tibor qaratsak chetga

chiqarilgan hunarmandchilik maxsulotlari yildan-yilga ko'payib brogan. Istaxriy asarida va "Hudud al Olam"da Xorazm ko'proq dehqonchilik-chorvachilik o'lkasi, ya'ni, asosan, tashqariga shu sohalarga tegishli buyumlar va mahsulotlar hamda xom ashyo chiqarilgan bo'lsa, al-Maqdisiy asarida keltirilgan chetga chiqarilgan molar ro'yxatida metall ishlash yani qulf, qurolsozlik aynan kamon, kemasozlik sanoati mahsulotlarini ham ko'ramiz.

Xorazmdagi ayrim shaharlargina uch qismdan iborat bo'lgan (Maqdisiy va Istaxriy asarlarida ham (ya'ni X asrda) katta, boy shahar deb eslatib o'tilgan Xiva Xorazmshoh-Ma'muniylar-Ma'muniylar davrida iqtisodiy ijtimoiy tomondan gullab yashnagan davrini o'tagan. Chunki bu davrda barcha ichki va tashqi yo'llar Xiva shahridan o'tganligi uning taraqqiy qilishiga imkon bergan. Bundan tashqari, Xiva atroflarini sug'organ Xeykonik (Polvonyop) kanalidan kemalar qatnab, nafaqat ichki, balki tashqi savdoda ham muhim rol o'ynagan. Xivaning X asr oxiri – XI asr boshlarida yirik savdo markazlaridan biri bo'lganligini arxeologik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Xozirda Xiva shahri O'zbekistonning shimoliy g'arbida, Xorazm viloyatning janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubida, Urganch shahridan 30 km uzoqda 95 m balandlikda joylashgan. Maydoni 2,8 ming gektar. 2025-yil 1-yanvar holatiga Xiva shahri aholisi– 100 000 kishini tashkil qilgan. Shaharning qadimgi qismidagi juda ko'p arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Ichan-Qal'a Sharqning ekzotik shahar timsolini o'zida saqlab qolgan afsonaviy shahardir. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar miloddan avval V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudugi bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo'lgan qadimgi osetin tilidagi „Xiauv“ – qal'a so'zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o'tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o'zgartirilgan (Xeykaniq-Xeyvaniq-Xeyvaq-Xeva-Xiva) nomidan kelib chiqqan deyдилar. Xorazmlik tarixchi solnomachi Xudoyberdi Qo'shmuhammad o'zining 1831-yilda yozgan "Dili G'aroyib" asarida Xorazmning qadimiy shaharlarini nomma-nom sanar ekan, "Bu mamlakatning yana bir qal'asi – Qal'ai Ramldir. Bu qal'aga Som ibn Nuh asos solgan bo'lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir" deydi. XI asr boshida Xorazm davlati

nafaqat madaniyat sohasida balki iqtisodiyot rivojida ham salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu davrda Xorazm vohasi Sharq musulmon tsivilizatsiyasining Yevrosiyo dashtlaridagi tayanchi sifatida, turkiy ko'chmanchilar dunyosini slavyan – bulg'orlar va xazarlar bilan bog'lovchi bir xalqa bo'lgan. Umuman, X – XI asrlarda O'rta Osiyo tashqi savdosidagi yetakchilik Xorazmga tegishli bo'lib, butun O'rta Osiyo savdosi amaliy jihatdan xorazmlik savdogarlar qo'liga o'tgan edi. Ular gazlamalar va qurol-yarog'lar, chetdan mo'ynalar, qullar va boshqalar olib kelishgan. Xorazm savdogarlarining savdo aloqalari Xazariya, Volga Bolgariya, Kiev Rusi, Skandinaviya, Xitoy, Hindiston, Xuroson, Gurgan va Sharqiy Yevropa, Orolbo'yi, Dasht-i Qipchoq va Yettisuv ko'chmanchilari bilan olib borilgan Xorazmning Ma'muniy hukmdorlar boshqaruvi davrida Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmoq orqali bo'lib o'tadigan savdoda Xazarlar va Bulg'or savdogarlari bilan amalga oshirilgan mol ayirboshlash jarayonlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu savdo aloqalarining qay darajada bo'lganligi, X asr 60-yillaridan boshlangan Xazar – o'g'uz, Xazar – Kiyev Rusi munosabatlarida Xorazmning eng asosiy siyosiy o'yinchi sifatida, bu jarayonlarda faol bo'lganligi yaqqol ko'rsatadi. Jumladan, "965 yilda rus knyazi Svyatoslavning Belaya Veja (Sarkel) shahri yaqinida Xazarlarning asosiy qo'shinini tor-mor etib, bu davlatni tugatgan davrda ham, Xorazm Xazar hoqonligining, endilikda "merosxo'ri" sifatida ish yuritib, o'z kurashini to'xtatmagan va hech bo'lmaganda, Quyi Volganing eng muhim savdo markazlarini qo'lga kiritishga intilgan. Gurganch amirlari, hatto ba'zida bunga muvaffaq ham bo'lganlarki, Maqdisiy bu haqda ba'zan Xazariyaning shaharlarini Jurjoniya hokimi egallab olganligini ta'kidlaydi" Yaqin va O'rta Sharq hududlari bilan tijorat aloqalari, asosan, ikki yo'l bilan olib borilgan. Birinchi yo'l manbalarda "Buyuk Xuroson yo'li" deb nom olgan. Ikkinchi yo'l – suv yo'li bo'lib, u Amudaryo, uning hozirgi kunda qurib qolgan o'zani Uzboy orqali Kaspiy dengiziga chiqib, undan keyin Kura daryosidan Kavkazorti hududlari, Shimoli-G'arbiy Eron va Kichik Osiyoga borilgan. Yozma manbalarda Misrdan ko'plab zig'ir tola, jun, paxta va ipak gazlamalar, rangli chinni buyumlar, shakarqamish, sovun va hokazolar chiqarilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. As-Saolibiyning ta'kidlashicha,

Misrdagi Dabika shahrida ishlab chiqariladigan dabiks matosi Xorazmda keng tarqalgan edi.

Xorazmshoh – Ma'muniylar davrida Xorazm savdogarlari Hindiston bilan ham qizg'in savdo munosabatlari o'rnatganlar. Jumladan, Beruniy o'zining "Minerologiya" asarida Hindistondan keltirilgan qimmatbaho tosh turlari va hind qilichlar olib kelinganligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tadi. Hindiston bilan savdoda ayniqsa Amudaryo suv yo'li juda muhim o'rin tutgan. Bu savdo yo'li haqida L.A.Mamleyeva quyudagicha yozadi, "Amudaryo orqali Balxga, undan so'ng Qobul, G'azna, Lahor va nihoyat Dehligacha borganlar. Hindistonga ko'proq yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pullar va shu singarilar olib borilgan"

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorazm vohasida IX asr oxiri – XI asr boshlarida kechgan siyosiy jarayonlar masalasi asosan, arab tilida bitilgan buyuk vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniyning bizgacha yetib kelmagan, ammo, Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" asarida tilga olingan "Xorazmning mashhur kishilari"[2] hamda juda qisqa tarzda "Geodeziya" asarida, bundan tashqari, Abu Nasr al-Utbiyning "Tarixi Yaminii"[3], Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» («Mukammal tarix»)[4] va qisman Xorazmdagi X-XI asrlardagi siyosiy jarayonlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar As-Saolibiyning «Latoif ul-maorif» («Ajoyib ma'lumotlar»)[5], as-Sam'oniyning «Kitob al-ansob» («Mashhur kishilar haqida kitob»)[3], Yoqut al-Hamaviyning "Mu'jam ul-udabo" ("Adiblar lug'ati") yoki "Irshod al-arib il ma'rifat al-adib" ("Adiblarning bilimiga ko'rsatma") [5], Jamol al-Qarshiyning "Al-mulhaqat bi-s-suroh" ("Suroh lug'atiga ilovalar") [4] kabi asarlarida mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada metodologik tadqiqot natijalariga ko'ra tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sharqshunos olim V.V.Bartold XX asr boshlaridanoq ishonch bilan: "Xorazm boyliklarini islom davrida yanada taraqqiy qilgan ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo aloqalari orqaligina orttirgan; bu savdo asosan Xorazmning shimolida jamlangan edi..."[5], -deb yozgan edi. A.Yu.Yakubovskiy shuni ta'kidlab

o'tgan edi: "O'rta Osiyo hayotida ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo Sharqiy Yevropa bilan olib boradigan savdo munosabatlaridan kam rol o'ynamagan. Butun bir hududlar aynan shu mahsulot ayirboshlash ta'siri ostida rivojlanganlar. Xorazm iqtisodiy va siyosiy jihatdan faqat Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo ta'sirida emas, balki ko'chmanchi turkman va o'g'uz dashtlari bilan bo'lgan savdo orqali ham o'sgan"[5]. Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid yozma manbalar juda kam bo'lib, mavjud manbalar ma'lumotlari ham bir – biriga zid va qarama – qarshidir. Shu jihatdan olganda, Ma'muniylar sulolasi tarixi tadqiqotchilari tadqiqot doirasi ancha cheklanib, bu sulola tarixini to'la – to'kis ochib berish imkoniyatini bermaydi. Islom davrida xorazmlik savdogarlar o'g'uzlar, xazarlar, Volgabo'yi bulg'orlari, vikinglar kabi shimollik xalqlar bilan iqtisodiy aloqada bo'lishgan. O'rta Osiyo kabi janubiy o'lkalarda ehtiyoj katta bo'lgan hayvon terisi, qullar, baliq mahsulotlari kabi ashyolarni Xuroson, Movarounnahr, Iroq bozorlariga yetkazishda xorazmlik savdogarlarning o'rni beqiyos edi.

Tarixchi Istaxriy Xorazm zamini tarixi bo'yicha ko'plab ma'lumotlar qoldirgan. U X asrda Xorazm va Xuroson o'rtasida olib borilgan savdo aloqalarini quyidagicha yozadi, "...Ular Xurosonning butun aholisiga nisbatan tarqoqroqdirlar (birovlarining joylarida) va hammadan ko'ra ko'proq sayohat qiladilar: Xurosonda bironta katta shahar yo'qki, unda ko'plab Xorazm aholisi yashamasin..." deb ta'kidlagan edi. Bu shuni ko'rsatadiki xorazmliklar boshqa millat vakillari bilan bir zaminda bahamjihat umrguzaronlik qilishgan.

Arab Xalifaligini vaziri Ibn al-Furat Xorazmdagi katta zamindorlardan biri ekanligi bilan bir qatorda quyidagi ma'lumotni ham keltirib o'tishimiz mumkin, "847-861 yillarda hukmronlik qilgan xalifa al-Mutavakkilning onasi xorazmlik Shuja' ismli ayol bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'lardi"[1].

Xalqaro miqyosda tan olingan haqiqat shundaki, Ma'muniylar sulolasi Markaziy Osiyoda birinchi "Ilm-fan akademiyasini" Gurganj shahrida tashkil qilgan. Ulamolarga homiylik qilishning oliyjanob an'analari sulola asoschisi Ma'mun ibn Muhammaddan boshlangan. Xorazm hukmdori sifatida u 995 yildan boshlab ilm-fan sohasidagi olimlarni Gurganj poytaxtiga taklif qila boshladi. Ma'munning taklifiga binoan Gurganjga kelgan mashhur olim, faylasuf, shifokor Abu Sahl Iso ibn Yahyo

al-Masihiy o'zining bir asarini Mamun Xorazmshohga ilm-fanga ko'rsatgan homiyligi uchun bag'ishlagan[2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid yozma manbalar juda kam bo'lib, mavjud manbalar ma'lumotlari ham bir – biriga zid va qarama – qarshidir. Shu jihatdan olganda, Ma'muniylar sulolasi tarixi tadqiqotchilari tadqiqot doirasi ancha cheklanib, bu sulola tarixini to'la – to'kis ochib berish imkoniyatini bermaydi. Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixini o'rganish jarayonidagi yana bir muhim jihat, xorij qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan hamda Xorazmshoh- Ma'muniylar davlati tarixi haqida batafsilroq ma'lumotlar beruvchi manbalar bir tarafdin to'liq o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi uchun, ikkinchi tarafdin mazkur manbalardan foydalanilib amalga oshirilgan tadqiqotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari natijasida muammoga biryoqlama yondashuvga hamda biri ikkinchisini takrorlovchi ilmiy adabiyotlarning yaratilishiga olib keldi.

Hozirgacha o'rganilayotgan davr tarixini tangashunoslik jihatidan yoritib beruvchi yaxlit bir ilmiy ish amalga oshirilmagan. Bu davr tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi qo'lyozma asarlar X asrlarda yaratilgan bo'lib, ular ham asosan hududning siyosiy tarixini o'zida aks ettiradi. Ularda keltirilgan ma'lumotlar va bugungi kungacha yetib kelgan Xorazmshohlar davri tangalarini qiyosiy tahlil qilish orqali bu davr tarixini yanada chuqurroq o'rganish mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak birinchidan, IX – XI asrlarda Xorazmning iqtisodiy va jihatdan gullab yashnaganligi, zaminda madaniy taraqqiyotga asos bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta bu taraqqiyotning zaminida hukmdorlarning to'g'ri siyosatini ham e'tirof etish kerak. Barcha Ma'muniy hukmdorlar ilm fan rivojini qo'llab quvvatlagan. Manbalar shuni ko'rsatadiki, barcha qo'shni mamlakatlarda xorazmlik savdogarlar yashaydigan mahallalar bo'lgani kabi Xorazmda ham turli millat vakillarining manzilgohlari bo'lgan va ular ahil inoq yashaganlar. O'zbek millatiga xos bo'lgan mehmondo'stlik, boshqa millat vakillariga do'stona munosabatda bo'lish kabi qadriyatlarimizning shakllanishi aynan shu jarayon bilan bog'liq bo'lsa ajabmas. Xorazm savdogarlarining savdo aloqalari Xazariya, Volga Bolgariya, Kiev Rusi,

Skandinaviya, Xitoy, Hindiston, Xuroson, Gurgan va Sharqiy Yevropa, Orolbo'yi, Dashti Qipchoq va Yettisuv ko'chmanchilari bilan olib borilgan.

Xorazm vohasidan tashqari uzoq hududlardan ham arxeologik va numizmatik manbalarining topilishi, Xorazmning X-XI asr boshlarida "Buyuk ipak yo'li" tarmoqlari bo'ylab Sharqiy Yevropadan Yettisuv va Xitoygacha, Skandinaviya yarimorolidan Damashqgacha bo'lgan hududda juda faol savdo munosabatlari olib borganligini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa ko'hna va boqiy shahar bo'lmish Xiva shahrining o'рни beqiyosdir. Bugungi kunda ham, Xiva shahrida ko'plab qadimiy saroylar, minoralar va masjidlar bor. Haqiqiy sharqona ertak muhiti bilan o'ralgan shahar. Dunyoning turli burchaklaridan millionlab sayyohlarning bu yerga kelishi bejiz emas. Xivaga bormagan kishi haqiqiy O'zbekiston ruhini his qilmagan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan Xiva yaqinida yangi "Arda Xiva" turistik majmua 2024-yilning kuzida qurib bitkazildi. Majmuaning o'ziga xos "Arda Xiva", ya'ni "port shahri" deb tarjima qilinadigan nomi, uning joylashgan o'rnidan kelib chiqqan. Buyuk Ipak yo'lining o'ziga xos jozibasini qayta tiklash maqsadida G'ovik ko'li yaqinida, sayyohlik shaharchasi hududida suv rekreatsion zonalari va yirik savdo maydonchalari barpo etilgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. – М.: Наука, 1969. – С.810.
2. Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. -М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – С. 808-811; Бируни Абу Райхан. Определение границ, мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия) // Избр. произв., т. 3. — Т.: «ФАН», 1966. – С.138- 139.
3. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // МИТТ, т. 1. — М.-Л., 1939, с. 358, 361-364, 367, 371-373, 383-384.
4. As-Sa'alibi.Lotaifo-i-ma'arif. Ed.M.J.Goejr. Bibliotheca Geographorum Arabicorum (BGA). Lugduni: Batavorum, 1867; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. 1. – Т.: «Наука», 1963. – 763 с.; Абдуллаев И. Абу Мансур Абдулмалик Ас-Саолибий. (Масъул муҳаррир М. М. Хайруллаев).– Тошкент, "Ўзбекистон", 1992. – 94 б.
5. Ас-Сам'ани Абу Са'д. Китоб ал-ансаб // МИТТ, т. 1. — М.-Л., 1939, с 327, 331, 334, 337-339, 340-343.